

KONCHILIK SOHASIGA TEGISHLI FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK USULLARNING AHAMIYATI

Dauletov Kalniyaz Abatbaevich

Nukus davlat texnika universiteti “Konchilik va metallurgiya” kafedrasi boshlig’i, ilmiy rahbar

Rametullayeva Mehriban Polatbek qizi

Nukus davlat texnika universiteti “Konchilik va metallurgiya” kafedrasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15210125>

Annotatsiya. Ushbu maqolada konchilik sohasiga tegishli fanlarni o’qitishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish haqida so’z boradi. Shuningdek pedagogik usullar nazariy bilimlarni berish orqali amaliy ko’nikmalarni ham rivojlantirish, o’quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv bilan birgalikda talabalarining foalligini oshirish yo’llari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: O’qitish metodi, og’zaki metod, ko’rgazmali metod, amaliy metod, konchilik sohasi, pedagogik mahorat.

THE IMPORTANCE OF MODERN PEDAGOGICAL METHODS IN TEACHING
MINING-RELATED SUBJECTS

Abstract. This article talks about the use of modern pedagogical methods in teaching subjects related to the field of mining. Also, the ways of pedagogical methods to develop practical skills by imparting theoretical knowledge, to increase the activity of students in combination with independent thinking and a creative approach are highlighted.

Key words: teaching method, oral method, demonstration method, practical method, mining field, pedagogical skills.

ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В
ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТОВ ГОРНОГО ДЕЛА

Аннотация. В данной статье говорится об использовании современных педагогических методов в преподавании предметов, связанных с горным делом. Также освещены способы педагогических методов развития практических навыков путем привития теоретических знаний, повышения активности учащихся в сочетании с самостоятельным мышлением и творческим подходом.

Ключевые слова: метод обучения, устный метод, демонстрационный метод, практический метод, горное дело, педагогическое мастерство.

KIRISH

Hozirgi kunda texnika va konchilik sohasiga tegishli fanlarni o'qitishning bir qancha samarali yo'llari mavjud. Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari o'sishi va yoshlarning fan texnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usul va shaklini to'g'ri tashkil etilishini, o'qishga qiziqishni, ijodiy qobiliyatni, egallangan bilimlarni amalda ijodiy qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Talabalarga konchilik sohasiga tegishli bo'lgan fanlarni o'qitishda boshqa fanlarni o'qitish da bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil metodlari qo'llanilib talabalarning texnika va konchilik sohasiga tegishli bo'lgan qiziquvchanligini va ziyrakligini oshirib boradi. Ma'lum mavzu doirasadagi bilimlarini amalga qo'llay olish usullarini o'rgatadi. O'qitish metodi qisqa vaqt mobaynida o'quvchilarga ko'proq bilim berishni o'ziga maqsad qilib oladi.

Har bir metodni o'z o'rnila qo'llay olish lozim, bu albatta pedagogik mahoratni talab qiladi. Bilimlarni tinglovchilarga tushinarli va qiziqarli tarizda yetkazish uchun og'zaki bayon qilish metodlari, ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlari juda kata yordam beradi.

Og'zaki metod: Ta'lim metodlari tizimida muhim o'rinn tutadigan metod bo'lib, o'zi ham quyidagi turlarga bo'linadi:

- hikoya
- suhbat
- tushuntirish
- ma'ruza

Hikoya qilish - programmada nazarda tutilgan barcha o'quv materialini aniq va to'liq qamrab olishi kerak. Material qiziqarli va o'quvchilarining fikrini aktivlashtiradigan, diqqatini yangilikning asosiy elementlariga jalb qiladigan bo'lishi lozim. Hikoya uchun o'qituvchi konchilik sohasiga tegishli bo'lgan qiziqarli ma'lumotlarni foydalaniladi.

Suhbat. Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga: oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Oldindan o'tkaziladigan suhbatlarni o'qituvchi yangi mavzu oldidan qo'llaydi. Bunday suhbatning maqsadi — bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida talabalarning bilimini aniqlashdir.

Yakuniy suhbat bilan olingen faktlarni sistemalashtirish va konkretlashtirishga, mustahkamlash va aniqlashga yo'llanadi. Yakuniy suhbat orqali talabalarning mavzuni qanchalli darajada yaxshi o'zlashtirganini bilib olish mumkin.

Ko'rgazmali metod: samarali metodlardan biri hisoblanib, zamonaviy ta'limning asosini tashkil etadi.

- Namoyish
- Tasvirlash

Biz doimo mavzuda o'tilgan yangi predmetlarni misol uchun ekskavator yoki boshqa da ishlab chiqarish uskunalarini borib ko'rshimiz mumkin emas. Shunday ekan oldin ko'rmagan narsamiz haqida bilimlarga ega bo'lismizdan oldin u haqida tassavurga ega bo'lismiz lozim.

Bu mavzuda ko'rgazmali metod qo'l keladi. Aytaylik, foydali qazilmalarni tashish uchun ishlatiladigan transport turlaridan biri avtosamasval haqida maruza vaqtida talabalarda tassavur paydo qilish uchun maketlardan foydalaniladi. Uning ishlash prinsipi, detallari va natiyjalilagini ko'rsatish uchun video materiallardan foydalaniladi. Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko'gazmali vositalar yordamida shakllanadigan tassavurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni tartibka solish va boyitishga, shuningdek, talabalarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari talabalarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, aniq va mavhum, hissiy va aqliy jihatlar nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

Amaliy ishlar metodi: Nazariy bilimlarimizni amalda tatbiq etish uchun eng zarur metod hisoblanadi.

- Mashq
- Laboratoriya
- Amaliy ishlar

Amaliy ishlar o'quvchilarga egallagan bilimlarini amalda qo'llashni o'rgatishda yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o'quvchilarning o'zları mustaqil tuzishlari katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ko'rgazmali qurollarning o'quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin, bu egallangan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlarining o'tkazilishi egallangan bilimlarning ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalda qo'llashga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurollar va turli texnikaviy

qoliplardan foydalangan holda tajribalar o'tkazish metodi hisoblanadi. Konchilik sohasida laboratoriya ishlari laboratoriya xonalarida yoki keng maydonlarda amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlar – bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig'i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o'rinda talabalar o'zlarining intilishlarini qo'llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo'yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar. Agarda o'qituvchi topshiriqqa kuzatilayotgan faktlarni kuzatuvchining qo'lidan keladigan tahlil va umumlashtirishlarni kirtska, kuzatishlarning samaradorligi yanada ortadi.

XULOSA

Dars o'tishda "Aqliy hujm", "BBB", "Bingo", "Claster", "Toj", "Zinama-zina", "Marra sari olg'a", "Shar" va boshqa usullardan foydalanish tavsiya etiladi, ammo tavsiya etilayotgan metod va shakllar bilan cheklanib qolishi kerak emas. Talabalarning konchilik sohasiga tegishli fanlarga qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish har bir darsning qanday saviyada tashkil qilinishiga bog'liq.

REFERENCES

1. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогических технологий. - М: 1989. - 192 с.
2. Babanskiy Yu. O'qitish samaradorligini oshirishning didaktik asoslari haqida. M.: Pedagogika - 2006 yil
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Interactive teaching methods at the university as a pedagogical innovation/Gulakova M. V., Kharchenko G. I. // Concept, No. 11. 2013. P.1-1.
5. Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Muharrir nashriyoti". 2019
6. Sanoqulov X.R, Xodieva D.P. Satbaeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Darslik. T.;TDPU.2015-yil.
7. Tilavova M. Texnologiya va uni o`qitish metodikasi: o`quv qo`llanma / M.
8. Tilavova. - Buxoro: OOO "Sadiddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 312 b.
9. Umumiy pedagogik a. - T .: « Fan va texnologiya», 2018, 528 bet
10. Q.H. Azizov "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. TAYLQEI. Toshkent2019 y